



TA'LIM JARAYONIDA KO'RISH NUQSONIGA EGA MAXSUS MAKTAB TARBIYALANUVCHILARI TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOSLIGI

Xalikova Sh. T.

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti "Pedagogika" fakulteti dotsenti

Tayanch so'zlar: nogironlik, ko'rish, ruhiyat, sotsializatsiya, rivojlanishi, ijtimoiylashuv, psixologiya, muammo, jamiyat, maxsus maktab, ta'lim jarayoni konkret tafakkur.

Ключевые слова: инвалидность, зрение, психика, социализация, развитие, психология, проблема, общество, специальная школа, конкретное мышление, обучения.

Key words: disability, vision, psyche, socialization, development, socialization, psychology, problem, society, special school, concrete thinking, learning

Ko'rish nuqsoni bo'lgan o'quvchilar tafakkurining rivojlanishi va ijtimoiylashuvi psixologiya fanida muammo sifatida o'rganilishi kishilik jamiyatining turli davrlarida ham olimlarini qiziqtirib kelgan. Maxsus maktabdagi ta'lim jarayonida bola konkret tafakkurga ega bo'la boradi. Ta'limning ta'siri bilan narsa va hodisalarni tashqi tomondan bilishdan asta-sekin ularning ichki mohiyatini bilishga, muhim xususiyat va belgilarni tafakkurda aks ettirishga, sinf jamoasida o'zini to'g'ri tutishga, ijtimoiylashuvga o'rgatib boriladi. Bu esa dastlabki umumlashtirish, birinchi xulosa chiqarish, dastlabki taqqoslash va solishtirishlarni o'tkazish hamda sodda xulosalar chiqarish imkonini beradi. Ana shu asosda bolada asta-sekinlik bilan tushunchalar tarkib topa boshlaydi. Bolalarda ilmiy tushunchani tarkib toptirish uchun ularni narsalarning belgilariga differentsial yondashishga o'rgatish kerak bo'ladi. Maxsus maktab o'quvchilariga narsalarning muhim belgilari borligini, shu muhim belgilar asosida narsalarni biron tushuncha yoki turkumga kiritish mumkinligini ko'rsatish kerak. Bu muhim belgilarni hamma vaqt ham osonlik bilan ko'rib va ajratib bo'lmaydi. Ko'rish nuqsoni bo'lgan o'quvchilar tafakkurining rivojlanishi va ijtimoiylashuvi psixologiya fanida muammo sifatida o'rganilishi kishilik jamiyatining turli



davrlarida ham olimlarini qiziqtirib kelgan. Ana shunday mulohazalarni umumlashtirgan rus psixologi A.V.Brushlinskiy shunday yozadi:

“Koinot cheksiz bo‘lganidek, uni bilish jarayoni ham cheksizdir. Tafakkur hamisha hali bilib olinmagan, yangilikning ana shunday cheksiz chuqur jihatlariga qaratilgandir. Har bir odam fikr yuritar ekan, bu bilan u shu paytgacha qandaydir yangilikni, noma’lum narsani mustaqil ravishda kashf qiladi. Tafakkur – jiddiy ravishda yangilikni qidirish va ochishga ijtimoiy jihatdan bog‘liq, aloqador bilish jarayonidir. Uning tahlili va tasnifiga qaraganda, voqelikni bevosita va umumlashtirib aks ettirishdan iboratdir. Tafakkur amaliy faoliyat asosida hissiy bilimlardan paydo bo‘ladi va hissiy bilish jarayonidan ancha tashqariga chiqib ketadi. Tafakkur sezgilar va idrok qilish jarayonlari orqali tashqi olam bilan bevosita bog‘lanadi hamda shu tariqa olamni aks ettiradi”. [1].

Bolalar narsalarning o‘zgarmaydigan ba’zi belgilari doimiyligini payqay olmasligi ulardagi tafakkurning eng muhim xususiyatlaridan hisoblanadi. Hodisalarning xossalari, qonuniyatlari, murakkab ichki bog‘lanish va munosabatlarining muhim belgilari bo‘yicha umumlashtirishga o‘tadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘quv faoliyati jarayonida buyumlarning tashqi belgilariga–jozibadorligiga ko‘proq e’tibor beradilar. M: quyosh, momaqaldiroq, sigir, avtomobily, qush va hokazolar to‘g‘risida fikr yuritishda “Quyosh isitadi, oy yoritadi”, “Momaqaldiroq guldiraydi”, “Sigir sut beradi”, “Avtomobily yuk tashiydi”, “qush sayraydi” kabi hukmlar chiqaradilar.

O‘quvchilarning bilim doirasi kengaygani sayin ular qat’iy hukmlardan taxminiy hukmlarga o‘ta boshlaydilar, ya’ni narsa va hodisalarning turli xususiyatlarga egaligini voqelik atigi bir harakatdan, bir sababdan emas, balki ko‘p sabablardan paydo bo‘lishini anglash bosqichiga ko‘tariladilar. Taxminiy hukmlar ikkinchi sinfdan boshlab namoyon bo‘ladi. O‘quvchilar “Nega bugun falonchi darsda ko‘rinmaydi, balki kasal bo‘lib qolgandir, uxlab qolgandir, dars tayyorlay olmay, uyalganidan kelmagandir” deb gumonsirab, taxminiy mulohazalar yurita boshlaydilar, natijada taxminiy hukm chiqara boshlaydilar.

Ta’lim jarayonida tafakkurning analitik-sintetik faoliyati muhim roly o‘ynaydi. O‘quvchi tahlil qilish jarayonida yaxlit munosabatni yoki narsani bo‘laklarga ajratib, ularning uzviy bog‘lanishini aniqlaydi, sintezda esa buning aksini bajaradi, ya’ni bo‘laklarning yaxlit buyumga bog‘lanishini aniqlaydi. Maxsus tashkil etilgan mavhumlashtirish va umumlashtirish usullarini o‘rgatish bolalar tafakkurining rivojlanishini yangi bosqichga ko‘taradi. Maxsus maktabda olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarimizda ma’lum bo‘lishicha, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning tafakkuri mantiqiy fikrlash, mulohaza yuritish, hukm va xulosa chiqarish, taqqoslash, tahlil qilishning turli usullarini egallashlari bilan

farqlanadi. Ta'lim jarayonida tafakkur jarayonlarini mustaqil fikrlashni o'rgatish kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni kamol toptirishning garovidir. Yetuk o'zbek olimlaridan marhum psixolog M.Vohidov tafakkur haqida fikr yuritarkan, jumladan shunday deydi: "Tafakkur qanchalik murakkab aks ettirish jarayoni bo'lishidan qat'i nazar, u hamisha til vositasi bilan amalga oshiriladi. Til va tafakkur o'zaro uzviy, ya'ni bir-biridan ajralmas jarayondir. Shuning uchun ham fikrning realligi tilda namoyon bo'ladi, deb bekorga aytilmagan." [2].

Tafakkur murakkab aks ettirish jarayoni ekanligi tufayli, uning nerv-fiziologik asosi bosh miya po'stining qandaydir bir cheklangan qismi bilan bog'liq emas

Turli predmetlar bilan turli ko'rgazmali qurollarni ko'rish, idrok qilish natijasida so'zli umumlashtirish usuliga o'tadi. O'quv yili oxiriga kelib tushunchali-so'zli umumlashtirish usuli paydo bo'ladi. Nutq ko'rinishlaridan biri – nutq malakalarini sekin-asta avj oldirish deb ataladi, bunda she'rni yoki so'zni, gapni aniq esga tushirish yuz ifodasini topadi.. Obraz – bu bilimlar, turmush tajribalari, bivosita xuli, reja esa u yoki bu natijaga erishish yulini aniilovchi ko'rsatmadir. Ular tafakkurga oid topshiriilarni yechishni sistematik (uzluksiz) va evristik reja asosida amalga oshirishni ko'rsatib berdilar. Ko'zi to'liq ojiz o'quvchilar oldilariga qo'yilgan vazifani zaif ko'ruvchi tengdoshlariga nisbatan ko'proq vaqt sarflab bajardilar, chunki ko'zi ojiz bolalar o'zining qo'l-teri sezgilariga suysngan holda vazifani amalga oshiradilar.Mazkur izlanishni olib borishda vaqt birligi (t) asosiy me'zon qilib olindi

2-sinfning ko'zi to'liq ojiz o'quvchilari fan asoslarini o'zlashtirishda ilmiy tushunchalarni egallashi bu toifa bolalar uchun ilmiy tushunchalarni egallash ularning aqliy taraqqiyotlari uchun muhim ahamiatga ega. Ko'zi to'liq ojiz o'quvchilar ongli ravishda qo'llari bilan paypaslab o'rganib chiqadilar.Zaif ko'ruvchilar to'liq ko'zi ojiz tengdoshlariga nisbatan biroz tezroq ushbu vazifani bajardilar. Ko'zi to'liq ojiz o'quvchilar bu vazifani o'rtacha 18,1 s da bajargan bo'lsalar, zaifko'ruvchilar 14,10s da bajarishga muvaffaq bo'ldilar, chunki,ko'rish analizatorining ishdan chiqishi tafakkurning tezligiga,chuqurligiga ,sifatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.Ma'lumki, bu toifa nogiron bolalarda tafakkur faoliyatining rivojlanishida ko'rgazmali qurollarning ahamiyati kattadir.Umuman olganda kozi ojiz bolalar ta'lim –tarbiyasini tashkil etishda ularning imkoniyatlarini inobatga olish zarur omillardan hisoblanadi va albatta jamiyatdagi ijtimoiylashuv sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Petrovskiy V.A. Umumiy psixologiya. -Toshkent. "O'qituvchi".1992. -353- 354 b[1].
2. G'oziyev E. Psixologiya. -T.: "O'qituvchi", 1994, 123-128 b[2].
3. Vohidov M. Bolalar psixologiyasi. -T.: "O'qituvchi", 1982, 2-169 b].

**РЕЗЮМЕ**

Maqolada ko'rish nuqsoni bo'lgan o'quvchilar tafakkurining rivojlanishi va ijtimoiylashuvi psixologiya fanida muammo sifatida o'rganilishi kishilik jamiyatining turli davrlarida ham olimlarini qiziqtirib kelgan. Maxsus maktabdagi ta'lim jarayonida bola konkret tafakkurga ega bo'la boradi. Ta'limning ta'siri bilan narsa va hodisalarni tashqi tomondan bilishdan asta-sekin ularning ichki mohiyatini bilishga, muhim xususiyat va belgilarni tafakkurda aks ettirishga, sinf jamoasida o'zini to'g'ri tutishga, ijtimoiylashuvga o'rgatib borish muammolariga etibor qaratilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье основное внимание уделяется развитие и социализации, учащихся с нарушениями зрения. Проблема социализация незрячих школьников интересовала ученых в разные периоды развития их личности. В процессе обучения в специальной школе у ребенка формируется конкретное мышление. Под влиянием обучение, начиная с познания вещей и явлений извне, человека постепенно учат познавать их внутреннюю сущность, отражать важные черты и признаки в мыслях, правильно вести себя в классном сообществе, социализироваться.

SUMMARY

The article focuses on the development and socialization of visually impaired students. The problem of socialization of blind schoolchildren interested scientists in different periods of their personality development. In the process of studying at a special school, a child develops a specific mindset. Under the influence of learning, starting with the knowledge of things and phenomena from the outside, a person is gradually taught to know their inner essence, reflect important features and signs in his thoughts, behave correctly in a classroom community, socialize.